

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**2024/3-SON
ILOVA TO'PLAM**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.F.Gaybullayeva	
No'xat navlarini o'sishi, rivojlanishi bilan oziqlantirish me'yorlarining ta'siri bo'yicha olib borilgan mahalliy va xorijiy ilmiy tadqiqotlar	835
Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova	
Sun'iy quvursimon kovaklardan foydalanib suv eroziyasiga qarshi kurashning samarasi	838
M.T.Abdullayeva, F.R.Qurolova	
Farg'ona viloyati adirlarida tarqalgan o'simlik turlari.....	841
S.A.Mamatqulova, T.E.Usmanova, I.R.Asqarov	
Determination of the amount of paulownia flowers and vitamins in their composition	847
M.T.Abdullayeva, M.Nazarov	
Tuproqni sog'lomlashtirishda mikroorganizmlar va mayda hayvonlarning ahamiyati	850
M.Nazarov Mamadali, Sh.M.Khalmatova	
Soil pollution by waste and measures to it prevent	854
D.M.Ahmedova, M.A.Boynazarova, H.S.Turdimatova	
Hovuz biotsenozining ekologik xususiyatlari	857
D.M.Ahmedova, H.S.Turdimatova	
Tut o'simligi navlarining bioekologiyasi	862
Sh.M.Xalmatova, G.M.Maxsudova	
O'quvchilarda ekologik tarbiya berishda sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar	868

ILMIY AXBOROT

Z.V.Alimova, M.A.Usmanova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" asaridagi ayrim forscha-tojikcha leksemalar va forsiy izofa haqida	871
X.A.Abdulxamidova, M.S.Sobirova	
Isajon Sultonning "Ozod" romanida intertekstuallik	876
M.A.Jo'rayeva	
Abdulla Avloniy ijodida safarnomaning o'rni.....	880
A.A.Qayumov, M.Sh.Abdurahimova	
Qo'chqor Norqobil qissalarida psixologik tasvir va psixofiziologik holat masalasi	884
I.I.Rustamova, D.A.Abdurahobova	
Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" asarining badiiy xususiyatlari	887
A.G.Sabirdinov	
Iqbol Mirzo she'riy mahorati haqida	890
A.A.Qayumov	
Hastalangan ruhiyat tasviri	894
R.M.Umurzakov	
Avtobiografik qissalarda bola obrazi	899
Q.V.Yo'lchiyev, A.Charos	
Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" va georgiy pryaxinning "Sarob" romanlarida ironiyaning o'rni	903
Z.V.Alimova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi "Ganj" va "Gavhar" istilohlari bilan bog'liq leksemalar xususida	907
G.A.Ikromova	
Dramalar tilida antroponimlarning qo'llanilishi (Sharof Boshbekov dramalari misolida).....	913
I.M.Naimjonova, Sh.A.Ganiyeva	
Tilshunoslikda maydon tushunchasiga nazariy yondashuvlar	918
N.A.Abdualiyeva	
Alisher Navoiy g'azallarida qo'llangan fors-tojikcha so'zlarning tahlili masalasi	922
A.R.Dadajonov	
Muhokama nutqining kompozitsion qurilishi.....	927
D.R.Teshaboyev	
Havola bo'lakli ergash gapli qo'shma gaplarda mazmuniy qorishqlik	930
I.T.Axmadjonov, A.R.Dadajonov	
Kelishik shakllari sinonimiyasining semantik xususiyatlari	936



UO'K: 821.512.133.(043.3)

QO'CHQOR NORQOBIL QISSALARIDA PSIXOLOGIK TASVIR VA PSIXOFIZIOLOGIK HOLAT MASALASI**THE PROBLEM OF PSYCHOLOGICAL IMAGERY AND PSYCHOPHYSIOLOGICAL STATE IN THE STORIES OF KOKHOR NORQOBIL****ПРОБЛЕМА ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ОБРАЗА И ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ В РАССКАЗАНИЯХ КОХОРА НОРКОБИЛЯ****Qayumov Abdurahob Abdurashidovich¹** ¹Farg'ona davlat universiteti doktoranti.**Abdurahimova Manzura Shokirjon qizi²** ²Farg'ona davlat universiteti, mustaqil tadqiqotchi.**Annotatsiya**

Maqolada psixologik va psixofiziologik holatlarning o'rganilishi yozuvchi Qo'chqor Norqobilning afg'on urushining insoniyat boshiga olib kelgan baxtsizliklariga bag'ishlangan qissalari misolida tadqiq etilgan bo'lib unda psixologik va psixofiziologik holatlar qahramon xarakteri va ruhiy holatini ochishdagi o'rni tahlil qilib berilgan. Urush qissalarida bunday holat ayniqsa ko'zga tashlanishi ko'rib chiqildi.

Аннотация

В статье исследование психологических и психофизиологических состояний изучается на примере рассказов писателя Кочкора Норкобиля, посвященных несчастьям афганской войны, а также роль психологических и психофизиологических условий в раскрытии характера и психического состояния анализируется герой. Считалось, что такая ситуация особенно заметна в военных рассказах.

Abstrakt

In the article, the study of psychological and psychophysiological conditions is studied on the example of the stories of the writer Kochkor Norqobil, dedicated to the misfortunes of the Afghan war, and the role of psychological and psychophysiological conditions in revealing the character and mental state of the hero is analyzed. It was considered that such a situation is especially noticeable in war stories.

Kalit so'zlar: psixologiya, psixofiziologiya, jest, mimika, gallyutsinatsiya, obraz, ruhiyat**Ключевые слова:** психология, психофизиология, жест, мимика, галлюцинация, образ, психика.**Key words:** psychology, psychophysiology, gesture, facial expressions, hallucinations, image, psyche**KIRISH**

Ma'lumki, adabiyot va san'at hamisha inson bilan tirik. Insonning jamiyat, tabiat, olam sir-sinoatlari bilan bog'liq tasvirlari san'at orqali namoyon bo'ladi. Shu jumladan, adabiyotshunoslikning ham eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Har bir davr adabiyoti qahramonlarining falsafiy-estetik, psixologik dunyosi bir biridan farq qiladi. Shu ma'noda mustaqillik davrida yaratilgan asarlar qahramonlarining badiiy-estetik dunyosi, ma'naviy axloqiy izlanishlari, intellektual dunyosi o'rganilishi ilmiy-nazariy umumlashmasini kutayotgan dolzarb masalalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Asardagi badiiy obraz xarakterini chuqur va to'liq ochib berishda muallif badiiy tasvir vositalari bilan qatorda psixologik tasvir vositalaridan ham foydalandi. Asarda muallif tomonidan qahramon ichki dunyosiga chuqur kirib borish, obraz ruhiy olamining batafsil tavsifi, qalb kechinmalarining tasviri "badiiy psixologizm" deb yuritiladi. Psixologizm atamasi psixologik tahlil, psixologik tasvir, psixologik obraz, psixologik roman, psixologik hikoya va psixologiya kabi atamalar

ILMIY AXBOROT

bilan bog'liq. A.B.Yesin ta'biri bilan aytganda, badiiy psixologizm – bu asar personajining hayolot olami, fikrlari, mulohazalarining o'ziga xos badiiy vositalardan foydalangan holda juda to'liq, batafsil va chuqur ifodalab berish.[1.114]

Psixologizm adabiyotning o'ziga xos hodisasi bo'lib, yozuvchining xohishiga bog'liq bo'lmagan holda namoyon bo'ladi. "Psixologik tahlil" esa inson psixikasi jarayonlarini, uning fikr va hissiyotidagi turli-tuman "ohang" rivojini aks ettiruvchi, qahramon ruhiy dunyosini analitik tamoyilda ochuvchi estetik kategoriyadir" Adabiyotshunoslikda psixologizm bir tomondan badiiy asarlardagi qahramonlar ruhiyatini tadqiq qilsa, ikkinchi tomondan badiiy asar ijodkorining ruhiy olamiga, badiiy asarni o'qiyotgan kitobxonning ma'naviy-ruhiy dunyosiga e'tibor beradi.[2.30]

Badiiy asarda qahramon xarakterining qirralari xilma-xil bo'lganidek, uning ruhiy olamini ochuvchi «portret, monolog, dialog, tush, psixologik timsollar, peyzaj, galyusinasiya kabi poetik vositalari ham rang-barangdir». Mazkur vositalar tahlili orqali adibning psixologik tahlil mahorati sirlari ochiladi. Olimlar tomonidan o'zbek nasri 80-90- yillarda turli o'zgarishlarga uchrangani ta'kidlab o'tiladi. Jumladan, Tilavoldi Jo'raev "Ong oqimi va tasviriylik" risolasida 80-90-yillarga kelib, o'zbek nasri qamrovi kengayganligi, tahlil maydoni, shakli, mazmuni, qolaversa, maqsadlarining yangi jihatlari yuzaga kelganligini ta'kidlab, "ruhiyat tahlili badiiy nasrning asosiy sifat belgisi, badiiylik mezoniga aylandi" .[3.3]deb yozadi.

Adabiyotshunos M.Qo'chqorova esse, hikoya va qissalar haqida fikr yuritar ekan, "hozirgi o'zbek nasrida inson ruhiyatini kashf etishda adiblrimiz turfa xil psixologik tasvir vositalaridan, chunonchi, tush, xotira-xayol, ichki va tashqi monolog, dialog, polilog, muallif bayoni, peyzaj, psixologik tasvir, qahramonlarning mimika va jestlari, illyuziya, gallyusinatsiya, egizak obrazdan keng foydalanishmoqdaki, bular barchasi tadqiqotchilarimizdan yangicha nigoh bilan tadqiq etishni talab etmoqda", degan xulosaga keladi.[4.173]

Xalqning uzoq yillar davomida shakllangan qadriyatlar qahramon nutqi orqali namoyon bo'lishi hammamizga ma'lum. Ana shunday qahramon xakteri, uning milliy xususiyatini ochib berishda psixofiziologik.[4.173]tasvir vositasining ham o'rni muhimdir. Ayniqsa, o'zbek nasrida milliy xarakter yaratish uchun psixofiziologik belgilar va badiiy nutq vositalaridan foydalanish o'ziga xos ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan yondashsak, bu ishimiz bevosita xarakterlar ruhiy dunyosini ochish mahorati muammosiga bag'ishlangan tadqiqot bo'lib, Qo'chqor Norqobil asarlaridagi psixologik tahlil vositalarining qahramon xarakterini ochishdagi psixofiziologik tasvir vositasiga to'xtalamiz.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Yozuvchining "Osmon ostidagi sir" qissasida quyidagi parcha uchraydi: – Xullas, oshna, shu qizing Xayrinisoni To'lqinimga kelin qilsak. Endi bu yog'i ikkoviga ham o'zing otalik qilsang. Uzangi yo'ldosh oshnachiligimiz hurmati, iltimos qilaman, so'zimni yerda qoldirma, To'ychi oshna! [5.4]

To'ychi polvon biroz kalovlanib turdi-da, xo'p ma'nosida bosh irg'ab, rizolik bildirdi. O'zbek xalqida farzandlar taqdirini ota-onalar belgilab qo'yish holatlar juda ko'p uchraydi. Bu holat yaxshilik bilan tugab, ota onalar belgilagan taqdir bilan oila qilib, baxtli bo'lib ketganlar ham yo'q emas, lekin bizning qissamiz qahramoni Xayrinisoni Rahim polvon o'z o'g'liga so'raydi. Qadrdon do'stiga nima deyishni bilmagan To'ychi polvon biroz kalovlanib turdi da, xo'p ma'nosida bosh irg'ab, rizolik berdi. Mana shu kalovlanish va bosh irg'ash psixofiziologik holatda otaning biroz norozi ekani, farzandi kelajakda baxtli bo'lmasligini ko'ngli sezgandak noiloj rozi bo'lishi yozuvchi tomonidan qahramon ruhiy holatidagi norozilik kayfiyatini uyg'otyapti. Xayriniso To'ychi polvonning yagona farzandi, u qizining taqdiriga befarq emas, lekin qizining ko'nglini ham so'rab o'tirmay, mamnuniyat bilan bo'lmasa da do'stining o'g'li To'lqinga berishga rozi bo'ldi.

Sevimli yozuvchimiz Qo'chqor Norqobil afg'on urushini ko'rgan adiblardan biri sanaladi.

Afg'on urushini nomini eshitishni o'zi insonni dahshatga soladi, undagi qahramonlar boshidan o'tkazgan voqealarga esa chidib turish qiyin. Urushda munosib qahramonliklar ko'rsatib qaytgan To'lqin polvon Xayrinisoga uylanadi, avvaliga ular judayam baxtli yashashadi. Oradan yillar o'tgach baxtlariga yetishmayotgan farzand ne'mati ularni g'amga botira boshlaydi. O'zbek millatida farzandsizlik holatiga fojia sifatida qaraladi. Odamlar tomonidan "yangilik bormi" degan gap qissa qahramonlarini tinka- madorlarini qurita boshlaydi, hatto odamlar To'qinni urushda pushtini kuydirib kelgan degan gaplar tarqatadi va bu holat yozuvchi tomonidan quyidagicha izohlanadi: "Qobuldagi markaziy gospitalda 4 oy davolandi. Yelkasidagi, so'l kuragining pastidagi

jarohat yengil edi, tez bitdi. Biroq qovug'ini yorib kirgan snaryad parchasini olib tashlash o'lim bilan barobar bo'ldi. It azobini tortib qiynaldi. Yara zahmi umurtqasigacha yetdi. Dard ham, davo ham taqdirning yozig'i. kuni bor ekan hayotga qaytdi. Gospitaldan chiqadigan kuni palataga davolovchi vrach polkovnik stonogin kirib keldi. Karavotga yotqizib, obdon ko'rikdan o'tkazdi. Kindigi pastiga, qovug'iga o'rtancha barmog'i bilan urib ko'rди, tumba ustidagi kasallik varaqasini olib sinchiklab ko'zdan kechirdi. To'lqinga "bo'ldi o'tiraver" ishorasini qilib, o'zi ham uning yoniga cho'kdi. Yigitning yelkasiga qo'l tashlab, nigohiga termulib turdi, so'ng muhim gapni aytmoqqa shaylanib, lablari pирpiradi... Kuyib-pishib nimalarnidir gapirayotgan polkovnikning so'zlarini o'rischaga shashti past To'lqin unchalik anglab yetmay, bosh igr'ab qo'yardi. Yigitning bunchalik bamaylixotir bosh silkitishi polkovnikning ensasini qotirdi, shu bilan birga birga rahmini keltirdi. Karavot yonida serrayib turgan hamshira yuzini burdi, yelkari silkinib, piqillab yig'lab yubordi. Polkovnik jarangdor ovozda: "Hy ладно, самый главный ты живой"- dedi. [5.6]

To'lqin bu gapning tagidagi mazmun-mohiyatni anchagacha anglay olmay yurdi. So'ng tirikligingga shukur qil, tiriklik hamma narsadan afzaldir, degan ma'noga yo'ydi. Ushbu parchadagi davolovchi vrachning To'lqinga bor gapni ayta olmay, lablarini pирpirashida ham urushning insoniyat boshiga solgan yana bir dahshatini tasvirlagan. Urushda qahramonlik ko'rsatgan qissamiz qahramoni bu voqealarga unchalik tushinmadi, hatto serrayib turgan hamshira ham bu holatga chiday olmay, yelkari silkinib, piqillab yig'lab yubordi. Urushda qo'lsiz, oyoqsiz kelsa ham uylanib o'zidan zurriyod qoldirish imkoni bor, ammo To'lqinda bu imkoniyat ham yo'q edi. Bu unga achinish bilan qaragan, lablari pирpirab haqiqatni ayta olmagan vrachdagi psixofiziologik holatda, uning ichki ruhiy olamida urushga nafrat tuyg'usini yana bir karra oshirilganidan dalolat. Hamshira qizning yig'lab yuborishi esa bu holatni yanada jiddiy ekanini ko'rsatmoqda. To'lqin bularning hammasini kegin anglab yetdi, agar o'sha paytda bilganida, urushda o'z jonini qurbon qilishi yoki tirik qolib uyga qaytganda ham Xayrinisoga uylanmagan bo'larmidi. Yigit kishi uchun bundan ortiq dard, bundan ortiq g'am bo'lmasa kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, qahramon ruhiy holati va xarakterini ochib berishda psixofiziologik vositalarining ahamiyati katta ekanligi bugungi kun adabiyotshunoslar tomonidan alohida ta'kidlanmoqa.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Есин А. Б. Психологизм русской классической литературы : учебное пособие.— М. : Флинта : Наука, 2011
2. Karim B; Ruhiyat alifbosi, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.:Toshkent 2018, 5-bet
3. Jo'raev T. Ong oqimi va tasviriylik – Toshkent: Fan, 1994, 3- b.
4. Qo'chqorova M. Badiiy so'z va ruhiyat manzaralari. – Toshkent: Muharrir, 2011. – B.173.
5. Norqobil Q. Osmon ostidagi sir: Yoshlik jurnali;.,2010,7-son